

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.01/2025.27.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**JUMABAYEV AMIR DARMENBAY ULI**

**“TARBIYA” DARSLARIDA MILLIY TARBIYANI AMALGA  
OSHIRISHNING DIDAKTIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH  
METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Jumabayev Amir Darmenbay uli**

“Tarbiya” darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirish metodikasi ..... 3

**Жумабаев Амир Дарменбай улы**

Методика совершенствования дидактических механизмов повышения национального воспитания на уроках предмета «Воспитание» ..... 25

**Jumabaev Amir Darmenbay uli**

Methodology for improving didactic mechanisms of implementing national education in “Tarbiya” lessons ..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 53

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.01/2025.27.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**JUMABAYEV AMIR DARMENBAY ULI**

**“TARBIYA” DARSLARIDA MILLIY TARBIYANI AMALGA  
OSHIRISHNING DIDAKTIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH  
METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7037 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) institutning veb-sahifasi (www.tpmi.uz) hamda «ZiyoNet axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Utamuradov Akbar**

falsafa fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Safarova Rohat Gaybullayevna**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 5-uy. Tel.: (99855)511-02-69; faks: (99855)511-02-69; e-mail: uzpfiti@umail.uz, uzpfiti@exat.uz

Dissertatsiya bilan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Ziyo ko‘chasi, 5-uy. Tel.: (+99855) 511-02-69; faks: (+99855) 511-02-69; e-mail: uzpfiti@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ -raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.Quronov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

p.f.d., professor

**B.M.Xakimova**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash kotibi,

p.f.f.d. (PhD)

**Sh.Q.Mardonov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi

Ilmiy seminar raisi,

p.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashuv, axborot oqimining jadallashuvi va madaniyatlararo muloqotning kengayishi sharoitida o'quvchilarni milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimlarida shaxsning faqat bilim va ko'nikmalarini emas, balki uning fuqarolik pozitsiyasi, qadriyatli munosabati, milliy o'zlikni anglash va axloqiy tanlov madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa umumiy o'rta ta'limda tarbiyaviy jarayonni zamonaviy didaktik mexanizmlar, interfaol metodlar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali tashkil etishni taqozo etadi. Ayniqsa, "Tarbiya" darslari o'quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'urur, ajdodlar merosiga hurmat va ijtimoiy faollikni shakllantirishning muhim pedagogik maydoni sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli mazkur darslarda milliy tarbiyani amalga oshirishning mazmuni, metodlari, vositalari va baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda. Bu holat "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirish metodikasini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslashni taqozo etadi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida milliy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, qadriyatlar ta'limi va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish maktab ta'limining muhim tarkibiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida o'quvchilarni faqat bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki axloqiy tanlov qilish, ijtimoiy mas'uliyatni anglash, madaniy merosga hurmat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yo'naltirish tendensiyasi kuchaymoqda. UNESCO global fuqarolik ta'limida o'quvchilarda bag'rikenglik, hurmat, hamkorlik va umumiy mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. OECD tadqiqotlarida esa empatiya, mas'uliyat, hamkorlik va o'zini boshqarish kabi ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar ta'lim samaradorligi va shaxsning ijtimoiy moslashuvi bilan bog'liq muhim omillar sifatida baholanadi. Shu jihatdan ilg'or xorijiy tajribalar "Tarbiya" darslarida milliy qadriyatlar mazmunini hayotiy vaziyatlar, interfaol topshiriqlar, reflektiv mashg'ulotlar va faoliyatga yo'naltirilgan metodlar orqali o'zlashtirish zarurligini asoslaydi.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiyani kuchaytirish, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, milliy g'urur, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori bilan tasdiqlangan rejasining 25-bandida umumta'lim maktablarida milliy g'oya tamoyillarini tarbiya jarayoniga chuqur singdirish, o'quvchilarga milliy tarbiya asoslarini to'laqonli tushuntirish hamda ajdodlarimizning tarbiyaga oid ta'limotlarini yoshlarga yetkazishga qaratilgan "Tarbiya" fanini joriy etish vazifasi belgilangan. Shu bilan birga, mazkur hujjatda "Tarbiya" fani bo'yicha darsliklar, multimedia ilovalari va o'quv-metodik majmualarni yaratish, shuningdek, "Tarbiya" fani o'qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirish masalalari ham nazarda tutilgan. Bu esa "Tarbiya" darslarida

milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, ajdodlar merosi va zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish asosida didaktik mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini kuchaytiradi. Shuning uchun "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirish metodikasini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash bugungi ta'lim-tarbiya amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2022-yil 11-maydagi "2022 - 2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134 son farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son, 2024-yil 21-iyundagi "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-232-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda milliy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy mas'uliyat va "Tarbiya" fanini o'qitishning didaktik-metodik asoslari R.X.Djurayev, X.Ibragimov, M.Quronov, R.G.Safarova, A.A.Begmatov, O.Musurmonova, X.M.Tojiboyeva, Sh.Mardonov, O.Jamoliddinova, J.Yo'ldoshev, Q.Quronboev, A.Mavrulov, J.Tulenov, E.Yusupov, D.Ro'zieva, N.Safaev, G.Tulnova, B.Xodjaev, G'.Shoumarov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)da milliy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, qadriyatli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiyaviy jarayonni didaktik tashkil etish masalalari I.V.Bestujev-Lada, D.R.Vaxitova, V.S.Dudchenko, V.I.Kondrateva, N.I.Lapina, V.Ya.Lyudis, A.I.Prigojin, Yu.Postalyuklar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda qadriyatlar ta'limi, fuqarolik tarbiyasi, madaniy o'zlikni anglash, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va axloqiy xulq-atvorni shakllantirish masalalari J.C.Crumbaugh, C.Kluckhohn, E.Shils, B.Blum, R.Mohan, H.Miyakawa va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasida

belgilangan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga doir ilmiy yo'nalishlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirish metodikasi yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

milliy tarbiyaning didaktik mexanizmlarini fanlararo integrativ hamkorlik texnologiyalari, milliy qadriyatlar mazmuni va ma'naviy-axloqiy yo'nalganlik asosida takomillashtirish;

"Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning nazariy-metodologik, pedagogik-psixologik va didaktik asoslarini tahlil qilish;

"Tarbiya" darslari mazmunini milliy qadriyatlarning hayotiy ahamiyati, axloqiy tanlov vaziyatlari, shaxsiy rivojlanish va ichki pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik materiallar bilan boyitishning metodik tizimini aniqlashtirish;

o'quvchilarda milliy odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish, uning samaradorligini yuqori, o'rta va quyi darajalar asosida baholash hamda tajriba-sinov ishlari orqali asoslash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni olingan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahri, Farg'ona viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 1190 nafar respondent o'quvchilar jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni mazmuni, metodikasi, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy (o'quv metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qiyoslash-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovnoma, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (ta'limni baholash, ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish, modellashtirish) metodlar majmui, pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

milliy tarbiyaning didaktik mexanizmlari o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantiruvchi fanlararo integrativ hamkorlik texnologiyalarini milliy qadriyatlar mazmuni bilan boyitish orqali ularning o'quv faoliyati tajribasiga ma'naviy-axloqiy yo'nalganlikni transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

"Tarbiya" darslari mazmuni milliy qadriyatlarning hayotiy ahamiyati, axloqiy tanlov vaziyatlari orqali o'quvchilarda ichki pozitsiyani shakllantirishga oid zamonaviy mavzular bilan shaxsiy rivojlanish yo'nalishidagi didaktik materiallarni o'quv-tarbiya jarayoniga kiritish asosida takomillashtirilgan;

milliy odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning sharqona axloqiy me'yorlar va xulq-atvor madaniyatini shakllantirishga qaratilgan maqsadli, bosqichli va natijaga yo'naltirilgan pedagogik

tizim bilan oilaviy va jamoaviy mas'uliyatini hamkorlik mexanizmlariga integratsiya qilish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning milliy odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi axloqiy me'yorlar va xulq-atvor madaniyati ko'nikmalarining yuqori (axloqiy qadriyatlarni ongli ravishda anglay olishi, barqaror ijtimoiy xulq namoyon etishi), o'rta (axloqiy me'yorlarni tushunishi, ammo vaziyatga bog'liq holda qo'llashi) hamda quyi (beqaror va sust namoyon bo'lish) darajalarda aniqlashning maqsadga muvofiqligiga ko'ra asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Tarbiya” darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishga xizmat qiluvchi didaktik mexanizmlar mazmuni aniqlashtirilgan hamda ularni milliy qadriyatlar va fanlararo integrativ hamkorlik asosida qo'llash yo'llari ishlab chiqilgan;

o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarash, axloqiy tanlov madaniyati, milliy odob-axloq ko'nikmalari va xulq-atvor madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan didaktik materiallar tizimi ishlab chiqilgan;

“Tarbiya” darslarida sharqona axloqiy me'yorlar, oilaviy va jamoaviy mas'uliyat, milliy qadriyatlar hamda xulq-atvor madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik ta'minot takomillashtirilgan;

o'quvchilarning milliy odob-axloq ko'nikmalari shakllanganligini aniqlashga xizmat qiluvchi yuqori, o'rta va quyi darajadagi baholash mezonlari ishlab chiqilgan hamda tajriba-sinov jarayonida amaliy samaradorligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Tarbiya” darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirishga doir nazariy-metodologik qarashlar, pedagogik yondashuvlar va metodik asoslarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotda milliy tarbiyaning didaktik mexanizmlari o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashi, milliy odob-axloq ko'nikmalari, qadriyatli munosabati va xulq-atvor madaniyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, “Tarbiya” darslari mazmunini milliy qadriyatlarning hayotiy ahamiyati, axloqiy tanlov vaziyatlari, shaxsiy rivojlanish va ichki pozitsiyani shakllantirishga oid didaktik materiallar bilan boyitish zarurati nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari milliy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, qadriyatli yondashuv, fanlararo integrativ hamkorlik va o'quvchilarda milliy odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy-pedagogik qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Tarbiya” darslarida milliy tarbiyani samarali amalga oshirishga qaratilgan metodik ta'minot, didaktik materiallar, axloqiy tanlov vaziyatlari, interfaol topshiriqlar va baholash mezonlarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotda taklif etilgan metodika o'quvchilarda sharqona axloqiy me'yorlar, oilaviy va jamoaviy mas'uliyat, milliy qadriyatlarga

hurmat, ijtimoiy xulq madaniyati va ma'naviy-axloqiy yo'nalganlikni rivojlantirishda foydalanish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan tavsiyalar va didaktik materiallardan umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" darslarini tashkil etishda, sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda, o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarida hamda "Umumiy pedagogika", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Pedagogik diagnostika", "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" kabi fanlar mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirish metodikasi" mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

milliy tarbiyaning didaktik mexanizmlari o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantiruvchi fanlararo integrativ hamkorlik texnologiyalarini milliy qadriyatlar mazmuni bilan boyitish orqali ularning o'quv faoliyati tajribasiga ma'naviy-axloqiy yo'nalganlikni transformatsiyalash asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va Farg'ona viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablari "Tarbiya" darslariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2026-yil 24-martdagi 04-37-954-sonli ma'lumotnoma). Natijada, o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantiruvchi fanlararo integrativ hamkorlik texnologiyalarini milliy qadriyatlar mazmuni bilan boyitishga erishilgan;

"Tarbiya" darslari mazmuni milliy qadriyatlarning hayotiy ahamiyati, axloqiy tanlov vaziyatlari orqali o'quvchilarda ichki pozitsiyani shakllantirishga oid zamonaviy mavzular bilan shaxsiy rivojlanish yo'nalishidagi didaktik materiallarni o'quv-tarbiya jarayoniga kiritish asosida takomillashtirishga oid mualliflik g'oyalaridan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida amalga oshirilgan IL-9524115133-raqamli "Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarini milliy ruhda tarbiyalashning 7-yillik differensial texnologiyasi" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2026-yil 25-fevraldagi 01-09/133-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarda ichki pozitsiyani shakllantirishga oid zamonaviy mavzular bilan shaxsiy rivojlanish yo'nalishidagi didaktik materiallarni o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etishga erishilgan;

milliy odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning sharqona axloqiy me'yorlar va xulq-atvor madaniyatini shakllantirishga qaratilgan maqsadli, bosqichli va natijaga yo'naltirilgan pedagogik tizim bilan oilaviy va jamoaviy mas'uliyatini hamkorlik mexanizmlariga integratsiya qilish asosida takomillashtirishga oid takliflari "Tarbiya" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Kengashining 2025-yil 1-iyuldagi 730-sonli nashr ruxsatnomasi). Natijada, "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning sharqona axloqiy me'yorlar va xulq-atvor madaniyatini shakllantirishga qaratilgan maqsadli, bosqichli va natijaga yo'naltirilgan pedagogik tizim bilan oilaviy va jamoaviy mas'uliyatini hamkorlik mexanizmlariga integratsiya qilishga erishilgan;

o'quvchilarning milliy odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi axloqiy me'yorlar va xulq-atvor madaniyati ko'nikmalarining yuqori (axloqiy

qadriyatlarni ongli ravishda anglay olishi, barqaror ijtimoiy xulq namoyon etishi), o'rta (axloqiy me'yorlarni tushunishi, ammo vaziyatga bog'liq holda qo'llashi) hamda quyi (beqaror va sust namoyon bo'lish) darajalarda aniqlashning maqsadga muvofiqligiga ko'ra asoslashga oid takliflaridan umumta'lim maktablari uchun "Kelajak soatlari" mavzularini ishlab chiqish va ularning mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2026-yil 24-martdagi 04-37-954-sonli ma'lumotnoma). Natijada o'quvchilarning axloqiy me'yorlar va xulq-atvor madaniyati ko'nikmalarining yuqori, o'rta hamda quyi darajalarda aniqlashning maqsadga muvofiqligini asoslashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 respublika konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy chop etilgan. Jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan, 8 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 165 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan; fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan; tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani, e'lon qilingani, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tarbiya**" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqilib, milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar va uni "Tarbiya" darslarida amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari bayon etilgan.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy me'yorlar, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalash dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy jamiyatda o'quvchi shaxsi faqat bilim egasi sifatida emas, balki mustaqil fikrlaydigan, axloqiy tanlov qila oladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ongli munosabat bildiradigan ijtimoiy faol subyekt sifatida shakllanishi lozim. Shu jihatdan "Tarbiya" darslari o'quvchilarning

ma'naviy dunyoqarashi, milliy odob-axloq ko'nikmalari va xulq-atvor madaniyatini rivojlantirishda alohida didaktik imkoniyatlarga ega.

Milliy tarbiya tushunchasi o'quvchilarda xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi, urf-odat va an'analari, sharqona axloqiy me'yorlari, oilaviy qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda o'quvchi milliy qadriyatlarni faqat nazariy ma'lumot sifatida o'zlashtirmaydi, balki ularni shaxsiy hayotiy tajribasi, munosabatlari, tanlovlari va kundalik xulq-atvori orqali anglaydi. Shu sababli "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning asosiy vazifasi o'quvchilarda milliy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni, axloqiy mas'uliyatni va barqaror ijtimoiy xulqni shakllantirishdan iborat.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi faqat maktab darslari bilan cheklanmaydi; unga oila muhiti, sinf jamoasi, mahalla, ommaviy axborot vositalari, raqamli muhit, tengdoshlar guruhi va jamiyatdagi qadriyatlar tizimi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani samarali amalga oshirish uchun dars mazmuni, metodlari, tarbiyaviy vaziyatlar, fanlararo integratsiya va hamkorlik mexanizmlarini o'zaro bog'liq holda tashkil etish zarur. Didaktik mexanizm deganda ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari va baholash mezonlarini muayyan natijaga yo'naltiruvchi pedagogik tizim tushuniladi. "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlari esa o'quvchilarda milliy odob-axloq ko'nikmalari, qadriyatli munosabat, ma'naviy dunyoqarash va ijtimoiy xulq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi mazmuniy, metodik, tashkiliy va baholovchi vositalar majmuasidir.

"Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani samarali amalga oshirish birgina metod yoki birgina tarbiyaviy tadbir bilan cheklanmaydi. Bunda qadriyatli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli, integrativ va refleksiv yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi zarur. Aynan shu uyg'unlik milliy tarbiyaning didaktik mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy asosini tashkil etadi.

### 1-jadval

#### "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslari

<b>№</b>	<b>Yondashuv</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>"Tarbiya" darslaridagi ifodasi</b>	<b>Kutiladigan natija</b>
<b>1</b>	<b>Qadriyatli yondashuv</b>	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyaning asosiy mazmuni sifatida qarash	Milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi, urf-odat va an'analarni mavzuga singdirish	O'quvchida qadriyatlarga ongli munosabat shakllanadi
<b>2</b>	<b>Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv</b>	O'quvchining yoshi, qiziqishi, ehtiyoji va shaxsiy tajribasini hisobga olish	Axloqiy tanlov vaziyatlari, individual fikr bildirish, refleksiya	Ichki pozitsiya va shaxsiy mas'uliyat rivojlanadi
<b>3</b>	<b>Faoliyatli yondashuv</b>	O'quvchini faol ishtirokchi sifatida tarbiyaviy jarayonga jalb qilish	Guruhli ish, loyiha, rolli o'yin, muammoli topshiriqlar	Amaliy xulq-atvor ko'nikmalari mustahkamlanadi

4	<b>Integrativ yondashuv</b>	Turli fanlar mazmunini tarbiyaviy maqsadga yo'naltirish	Tarix, adabiyot, ona tili, huquq, san'at fanlari bilan bog'lash	Ma'naviy dunyoqarash yaxlit rivojlanadi
5	<b>Refleksiv yondashuv</b>	O'quvchini o'z fikri, qarori va xulqini baholashga o'rgatish	"Men qanday yo'l tutardim?", "Nima uchun?" kabi savollar	O'zini anglash va axloqiy baholash ko'nikmasi rivojlanadi

Milliy tarbiyani amalga oshirishda muhim masalalardan biri o'quvchilarda "ichki pozitsiya"ni shakllantirishdir. Ichki pozitsiya – bu o'quvchining axloqiy me'yor, qadriyat, ijtimoiy talab va shaxsiy xulq-atvoriga nisbatan ongli munosabati hisoblanadi. Agar o'quvchi halollik, mas'uliyat, hurmat yoki vatanparvarlikni faqat dars mavzusi sifatida bilsa, bu hali barqaror tarbiyaviy natija emas. U mazkur qadriyatlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olsa, o'z xatti-harakatini shu mezonlar asosida baholay olsa, ana shunda milliy tarbiya real pedagogik natijaga aylanadi. Shu sababli "Tarbiya" darslarida axloqiy tanlov vaziyatlari muhim didaktik vosita sifatida qaraladi. Axloqiy tanlov vaziyatlari o'quvchini muayyan muammo yuzasidan fikrlashga, bir nechta xatti-harakat variantini solishtirishga, ularning oqibatini anglashga va mustaqil qaror chiqarishga o'rgatadi. Masalan, "Do'stining xatosini yashirish to'g'rimi yoki unga to'g'ri yo'l ko'rsatishmi?", "Oilaviy mas'uliyat faqat ota-onaga tegishlimi yoki farzand ham mas'ulmi?", "Kattalarga hurmat nimada namoyon bo'ladi?" kabi savollar o'quvchini oddiy javob berishga emas, balki o'z pozitsiyasini asoslashga undaydi.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Tarbiya" darslarida ayrim hollarda milliy qadriyatlar bayoniy usulda tushuntiriladi, lekin ularning o'quvchi hayoti, tanlovi va xulq-atvori bilan bog'lanishi yetarli darajada ta'minlanmaydi. Masalan, "halollik" mavzusi o'tilganda uning ta'rifi berilishi mumkin, biroq o'quvchi "imtihonda ko'chirish", "topib olingan buyumni qaytarish", "do'stining noto'g'ri ishini ko'rganda qanday yo'l tutish" kabi hayotiy vaziyatlar orqali fikrlashga jalb qilinmasa, mavzuning tarbiyaviy ta'siri cheklangan bo'ladi. Shu bois didaktik mexanizmlarni takomillashtirishda quyidagi amaliy yo'nalishlar muhim hisoblanadi: birinchidan, har bir mavzu milliy qadriyat bilan bog'lanishi; ikkinchidan, mavzu asosida axloqiy tanlov vaziyati ishlab chiqilishi; uchinchidan, o'quvchi o'z fikrini bildirishi va asoslashiga imkon berilishi; to'rtinchidan, dars yakunida refleksiv xulosa chiqarilishi; beshinchidan, o'rgatilgan qadriyat darsdan tashqari faoliyat, oila va jamoaviy munosabatlar bilan mustahkamlanishi.

"Tarbiya" darslari o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ijtimoiy hayotga tayyorlash va xulq-atvor madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv predmetidir. Shu sababli mazkur darslar milliy tarbiyani amalga oshirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega: dars mazmunining tarbiyaviy yo'naltirilganligi; interfaol metodlardan foydalanish imkoniyati; fanlararo integratsiyani amalga oshirish; o'quvchining ichki pozitsiyasini shakllantirish; baholash va monitoringni tashkil etish. "Tarbiya" darslarining yana bir muhim

pedagogik imkoniyati oila va jamoatchilik bilan bog'liqligidir. Milliy tarbiya mazmuni oilaviy hayot, mahalla muhiti, urf-odatlar, bayramlar, ota-onaga hurmat, qo'ni-qo'shnichilik, jamoaga munosabat kabi real ijtimoiy tajribalar bilan bevosita bog'liq. Shu sababli darsda o'rganilgan qadriyatlar sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar, ota-onalar bilan hamkorlik, mahalla faollari bilan uchrashuvlar, ijodiy loyihalar va jamoaviy amaliy ishlar orqali mustahkamlanishi kerak. Masalan, "Mehr-oqibat" mavzusi darsda tushuntirilgandan so'ng o'quvchilarga "oiladagi mehr ifodalari", "mahalladagi yordamga muhtoj insonlarga e'tibor", "sinfdan bir-biriga yordam berish" kabi kichik amaliy topshiriqlar berilishi mumkin. Bu topshiriqlar o'quvchilarda milliy qadriyatni real hayotda qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirishning metodik shart-sharoitlari**" deb nomlanib, unda "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi shakl, metod va vositalar, mazkur jarayonning pedagogik modeli hamda milliy tarbiya metodikasini takomillashtirish yo'llari yoritib berilgan.

"Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani samarali amalga oshirish, avvalo, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ma'naviy ehtiyojlari, ijtimoiy tajribasi, oilaviy muhiti va qadriyatli munosabatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan metodik shart-sharoitlarga bog'liq. Mazkur jarayonda dars mazmuni faqat nazariy tushunchalar, axloqiy qoidalar va tayyor xulosalarni yetkazish bilan cheklanmasligi lozim. Aksincha, o'quvchi milliy qadriyatlarni anglash, ularni tahlil qilish, axloqiy vaziyatlarda qo'llash, o'z xulqini baholash va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi zarur.

"Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning asosiy metodik shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: dars mazmunini milliy qadriyatlar bilan boyitish; fanlararo integrativ hamkorlikni tashkil etish; axloqiy tanlov vaziyatlaridan foydalanish; interfaol metodlar asosida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash; oila, maktab va jamoatchilik hamkorligini yo'lga qo'yish; o'quvchilarning milliy odob-axloq ko'nikmalarini darajalar asosida baholash.

"Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirish shakllari mazmun va maqsadga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Ularga an'anaviy dars, interfaol dars, suhbat-dars, munozara-dars, loyiha-dars, tarbiyaviy vaziyatlar tahlili, reflektiv mashg'ulot, sinfdan tashqari tadbir, oilaviy hamkorlik topshirig'i va jamoaviy ijtimoiy loyiha shakllari kiradi. Ushbu shakllarning har biri o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, axloqiy mas'uliyat, xulq-atvor madaniyati va ijtimoiy faollikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

An'anaviy dars shaklida milliy qadriyatlar haqidagi bilimlar beriladi, tushunchalar izohlanadi, mavzuga oid asosiy g'oyalar o'quvchilarga yetkaziladi. Biroq milliy tarbiyaning samaradorligini oshirish uchun bunday darslar interfaol, muammoli va faoliyatga yo'naltirilgan metodlar bilan boyitilishi zarur. Chunki o'quvchida qadriyatli munosabat faqat eshitish orqali emas, balki fikrlash, solishtirish, baholash, tanlov qilish va xlosa chiqarish orqali shakllanadi.

## “Tarbiya” darslarida milliy tarbiyani amalga oshirish shakllari

Shakl	Mazmuni	Qo‘llash imkoniyati	Tarbiyaviy natija
<b>Interfaol dars</b>	O‘quvchilarni faol fikrlash va muloqotga jalb etish	Guruhli ish, savol-javob, bahs	Qadriyatlarga nisbatan faol munosabat shakllanadi
<b>Munozara-dars</b>	Axloqiy masalalar bo‘yicha fikr almashish	Muammoli savollar, bahsli vaziyatlar	Mustaqil fikr va axloqiy pozitsiya rivojlanadi
<b>Loyiha-dars</b>	Milliy qadriyatlarni amaliy faoliyat orqali o‘rganish	Oilaviy, mahallaviy yoki tarixiy mavzudagi loyiha	Ijtimoiy mas‘uliyat va hamkorlik kuchayadi
<b>Refleksiv mashg‘ulot</b>	O‘z xulqi va qarorini baholash	Esse, savolnoma, “mening xulosam” topshirig‘i	Ichki pozitsiya shakllanadi
<b>Sinfdan tashqari tadbir</b>	Darsda o‘rganilgan qadriyatlarni amaliy hayot bilan bog‘lash	Uchrashuv, tadbir, ko‘rgazma, ma‘naviy kecha	Milliy tarbiya hayotiy mazmun kasb etadi
<b>Oilaviy topshiriq</b>	Dars mazmunini oila muhiti bilan uyg‘unlashtirish	Ota-onalar bilan suhbat, oilaviy qadriyatlar tahlili	Oilaviy mas‘uliyat rivojlanadi

Munozara-dars shakli o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va axloqiy pozitsiyasini shakllantirishda samarali hisoblanadi. Masalan, “Halollik inson hayotida qanday o‘rin tutadi?”, “Milliy g‘urur va manmanlik o‘rtasidagi farq nimada?”, “Oilaviy mas‘uliyat faqat ota-onaga tegishlimi?” kabi savollar o‘quvchilarning fikriy faolligini oshiradi. Bunday mashg‘ulotlarda o‘quvchi o‘z qarashini asoslaydi, boshqalar fikrini tinglaydi, o‘z pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqadi.

“Tarbiya” darslari uchun tanlanadigan metodlar o‘quvchilarda axloqiy me‘yorlarni yodlashga emas, balki ularni anglash, tahlil qilish va xulq-atvorda namoyon etishga xizmat qilishi lozim. Shu jihatdan axloqiy tanlov vaziyati, qadriyatli tahlil, keys-stadi, rolli o‘yin, refleksiv suhbat, “qadriyatlar xaritasi”, “hayotiy misol asosida xulosa”, “mening qarorim” kabi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi.


Milliy tarbiyani amalga oshirishda didaktik vositalar dars mazmunini ko‘rgazmali, hayotiy, ta’sirchan va amaliy qilishga xizmat qiladi. “Tarbiya” darslarida milliy tarbiyaga oid matnlar, maqollar, hadis va hikmatli so‘zlar, tarixiy shaxslar hayoti, badiiy asarlardan parchalar, videomateriallar, infografika, qadriyat kartalari, axloqiy vaziyatlar to‘plami, refleksiv daftar, baholash varaqalari va oilaviy topshiriqlardan foydalanish mumkin.

## “Tarbiya” darslarida milliy tarbiyani amalga oshirish metodlari

Metod	Mazmuni	Mavzuga qo‘llanishi	Rivojlantiriladigan ko‘nikma
<b>Axloqiy tanlov vaziyati</b>	O‘quvchini muayyan vaziyatda qaror qabul qilishga yo‘naltirish	Halollik, mas’uliyat, hurmat mavzularida	Axloqiy qaror qabul qilish
<b>Qadriyatli tahlil</b>	Qadriyat mazmunini hayotiy misollar orqali tahlil qilish	Milliy qadriyatlar, urf-odatlar	Qadriyatlarga ongli munosabat
<b>Keys-stadi</b>	Real yoki shartli vaziyatni tahlil qilish	Oilaviy va jamoaviy mas’uliyat	Muammoni hal qilish
<b>Rolli o‘yin</b>	Axloqiy vaziyatni ijro etish	Muloqot, hurmat, odob mavzularida	Xulq-atvor madaniyati
<b>Refleksiv suhbat</b>	O‘quvchining o‘z fikri va xulqini baholashi	Har bir mavzu yakunida	O‘zini anglash
<b>Loyiha metodi</b>	Qadriyatni amaliy faoliyatda o‘rganish	Ajdodlar merosi, mahalla qadriyatlari	Hamkorlik va ijtimoiy faollik

Masalan, “Halollik” mavzusida o‘zbek xalq maqollari, ajdodlar hayotidan ibratli voqealar, real hayotiy vaziyatlar va refleksiv savollar birgalikda qo‘llansa, o‘quvchi mazkur qadriyatni turli nuqtai nazardan anglaydi. “Vatanparvarlik” mavzusida tarixiy shaxslar faoliyati, davlat ramzlari, mahalla va yurt ravnaqiga hissa qo‘shish haqidagi topshiriqlar berilishi mumkin. “Oilaviy mas’uliyat” mavzusida esa ota-onalar bilan suhbat, oilaviy qadriyatlar xaritasini tuzish va shaxsiy xulosa yozish samarali vosita bo‘la oladi.

“Tarbiya” darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning pedagogik modeli (1-rasmga qarang) o‘quvchilarda milliy odob-axloq ko‘nikmalari, ma’naviy dunyoqarash, qadriyatli munosabat, oilaviy va jamoaviy mas’uliyat, barqaror ijtimoiy xulqni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik tizim sifatida ishlab chiqiladi. Modelning asosiy vazifasi dars mazmuni, metodlari, vositalari, hamkorlik subyektlari va baholash mezonlarini yagona natijaga yo‘naltirishdan iborat. Mazkur pedagogik modelning afzalligi shundaki, u milliy tarbiyani alohida targ‘ibot yoki umumiy ma’naviy suhbat sifatida emas, balki maqsadli, bosqichli, o‘lchanadigan va amaliy natijaga yo‘naltirilgan didaktik tizim sifatida tashkil etadi. Modelda o‘quvchining bilim olishi, qadriyatni anglash, axloqiy tanlov qilish, xulq-atvorida namoyon etish va o‘zini baholash jarayonlari izchil bog‘langan.



1-rasm. "Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirish modeli

Pedagogik modelda milliy tarbiyani amalga oshirish natijalari quyidagi ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi: o'quvchining milliy qadriyatlar haqidagi bilimlari; axloqiy me'yorlarni tushunishi; qadriyatlarga munosabati; axloqiy vaziyatda qaror qabul qilishi; kundalik xulqda milliy odob-axloq me'yorlariga amal qilishi; oilaviy va jamoaviy mas'uliyatni namoyon etishi.

Modelning amaliy ishlashi uchun "Tarbiya" darslari quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiq: motivatsion tayyorgarlik, qadriyatli mazmuni anglash, axloqiy vaziyatni tahlil qilish, faoliyatga tatbiq etish, refleksiv baholash va ijtimoiy mustahkamlash.

#### 4-jadval

### Milliy tarbiyani amalga oshirishning bosqichli metodik algoritmi

Bosqich	Maqsadi	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati	Natija
<b>1-BOSQICH.</b> Motivatsion tayyorgarlik	Mavzuga qiziqish uyg'otish	Hayotiy savol yoki muammoli vaziyat beradi	Fikr bildiradi, munosabatini aytadi	Ichki qiziqish paydo bo'ladi
<b>2-BOSQICH.</b> Qadriyatli mazmuni anglash	Milliy qadriyat mazmunini tushuntirish	Misol, matn, hikmat, tarixiy voqea keltiradi	Tahlil qiladi, savollarga javob beradi	Qadriyat mazmuni anglanadi
<b>3-BOSQICH.</b> Axloqiy vaziyatni tahlil qilish	Qadriyatni hayotiy muammo bilan bog'lash	Keys yoki axloqiy dilemma taqdim etadi	Qaror variantlarini solishtiradi	Axloqiy tanlov ko'nikmasi rivojlanadi
<b>4-BOSQICH.</b> Faoliyatga tatbiq etish	Qadriyatni amaliy faoliyatda qo'llash	Rolli o'yin, loyiha, guruhli topshiriq tashkil etadi	Amaliy yechim ishlab chiqadi	Xulq-atvor madaniyati shakllanadi
<b>5-BOSQICH.</b> Refleksiv baholash	O'z fikri va xulqini baholash	Refleksiv savollar beradi	Xulosa chiqaradi	Ichki pozitsiya rivojlanadi
<b>6-BOSQICH.</b> Ijtimoiy mustahkamlash	Dars natijasini oila va jamoa bilan bog'lash	Oilaviy yoki ijtimoiy topshiriq beradi	Hayotiy tajribada qo'llaydi	Qadriyat xulqda mustahkamlanadi

Ushbu algoritm "Tarbiya" darsida o'quvchini oddiy tinglovchi emas, balki faol subyekt sifatida tarbiyaviy jarayonga jalb qiladi. Ayniqsa, axloqiy tanlov vaziyatlari va refleksiv baholash bosqichlari o'quvchilarda ichki pozitsiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

"Tarbiya" darslarida milliy tarbiyani amalga oshirish metodikasini tatbiq etish aniq bosqich, metodik vosita va pedagogik natijaga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Tatbiq etish jarayoni, avvalo, dars mazmunini tahlil qilish, mavzuga mos milliy qadriyatni tanlash, axloqiy vaziyat ishlab chiqish, interfaol metodni belgilash, refleksiv topshiriq tayyorlash va baholash mezonlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Metodikani muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun o'qituvchining metodik tayyorgarligi ham muhimdir. "Tarbiya" fani o'qituvchisi milliy qadriyatlar

mazmunini chuqur bilishi, uni yosh xususiyatlariga moslashtira olishi, axloqiy vaziyatlar tuzishi, interfaol metodlardan samarali foydalanishi va o‘quvchilarning tarbiyaviy rivojlanishini baholay olishi zarur. Shu bois o‘qituvchilar uchun metodik seminarlar, amaliy treninglar, dars ishlanmalari banki va didaktik materiallar to‘plamini yaratish maqsadga muvofiq.

## 5-jadval

### Dars va darsdan tashqari faoliyatda milliy tarbiyani uyg‘unlashtirish

Yo‘nalish	Darsdagi faoliyat	Darsdan tashqari faoliyat	Kutiladigan natija
<b>Milliy qadriyatlarni anglash</b>	Qadriyatli tahlil, matn bilan ishlash	Ma’naviy tadbir, uchrashuv	Qadriyatlarga hurmat shakllanadi
<b>Axloqiy tanlov</b>	Keys va muammoli vaziyat	Hayotiy vaziyatlar yuzasidan suhbat	Mas’uliyatli qaror qabul qilish rivojlanadi
<b>Oilaviy mas’uliyat</b>	Oilaviy qadriyatlar mavzusida dars	Ota-onalar bilan hamkorlik topshirig‘i	Oilaviy munosabat madaniyati rivojlanadi
<b>Jamoaviy mas’uliyat</b>	Guruhli topshiriq	Sinf yoki mahalla loyihasi	Hamkorlik va ijtimoiy faollik kuchayadi
<b>Refleksiv rivojlanish</b>	O‘z xulqini baholash	Refleksiv daftar yuritish	Ichki pozitsiya mustahkamlanadi

Tatbiq etish jarayonida quyidagi metodik tamoyillarga amal qilish zarur: hayotiylik, milliylik, shaxsga yo‘naltirilganlik, faoliyatga asoslanganlik, izchillik, hamkorlik, refleksivlik va natijaviylik. Hayotiylik tamoyili dars mazmunining o‘quvchi tajribasi bilan bog‘lanishini ta’minlaydi. Milliylik tamoyili qadriyatlar, urf-odatlar va ajdodlar merosiga tayanadi. Shaxsga yo‘naltirilganlik o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga oladi. Faoliyatga asoslanganlik o‘quvchini amaliy jarayonga jalb qiladi. Refleksivlik esa o‘quvchini o‘z xulqini baholashga o‘rgatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tarbiya” darslarida milliy tarbiyani amalga oshirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish**” deb nomlanib, unda tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, bosqichlari hamda ularning natijalari bayon qilingan.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi – “Tarbiya” darslarida milliy qadriyatlar, sharqona axloqiy me‘yorlar, axloqiy tanlov vaziyatlari, fanlararo integrativ hamkorlik va oila-maktab-jamoatchilik hamkorligi asosida ishlab chiqilgan didaktik mexanizmlarning o‘quvchilarda milliy odob-axloq ko‘nikmalari, ma’naviy dunyoqarash, qadriyatli munosabat va barqaror ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

